



## PORSOXON SHAMSIYEV ILMIIY MEROSINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

**Muallif:** Jumayeva Shahnoza Karim qizi <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Termiz davlat universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20225984>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek matnshunosligi va navoiyshunosligining asoschilaridan biri, filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Porsoxon Shamsiyevning (1897–1972) ilmiy merosi tahlil qilinadi. Olimning mumtoz adabiyot namunalari, xususan Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi nazariy prinsiplari va amaliy ishlari, shuningdek, matnshunoslik metodikasini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Porso Shamsiyev, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, Alisher Navoiy, tekstologiya, manbashunoslik, Xamsa, nusxalar tizimi.

XX asr o‘zbek filologiyasi taraqqiyotida mumtoz adabiy merosni to‘plash, o‘rganish va nashr etish masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu borada matnshunos olim Porsoxon Shamsiyevning xizmatlari beqiyosdir. U nafaqat qo‘lyozmalar bilan ishlash, balki o‘zbek matnshunoslik maktabining nazariy asoslarini yaratgan zahmatkash olim sifatida tanilgan. Uning 50 yillik ilmiy faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari bugungi kunda ham ilmiy-amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan.

#### 1. Porso Shamsiyevning ilmiy-nazariy qarashlari

Porso Shamsiyev matnshunoslikni faqatgina qo‘lyozmalarni ko‘chirish deb emas, balki chuqur tahliliy jarayon sifatida baholagan. Uning nazariy merosida quyidagi tamoyillar asosiy o‘rin tutadi:

Matnni tahlil qilish metodikasi: Olim “so‘zning tarixiy shakli bilan hozirgi talqinini bog‘lash” prinsiplarini ishlab chiqqan. U qo‘lyozmalarni lingvistik, tarixiy va variantli tahlil qilish orqali asarning asl holatini tiklashga intilgan.

Variantlar bilan ishlash (Nusxalar tizimi): Shamsiyev “Xamsa” dostonlari misolida turli qo‘lyozma nusxalarini (A, S, M va b.) qiyosiy o‘rganish orqali eng ishonchli matnni tanlash, nusxalarning genealogik daraxtini yaratish metodini qo‘llagan. Uning matnshunoslik prinsiplarida matnning tushunarli bo‘lishi uchun leksik, tarixiy va adabiy izohlar bilan boyitish muhim sanalgan.

#### 2. Ilmiy merosning amaliy ahamiyati

Porsoxon Shamsiyevning faoliyati juda keng qamrovli bo‘lib, u mumtoz adabiyotimizning yirik namoyandalari asarlarini ilmiy-tanqidiy nashr etishda ishtirok etgan.

Navoiyshunoslikdagi xizmatlari: Olim Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub” asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini



nashrga tayyorlagan. U 15 jildlik “Alisher Navoiy asarlari” nashrining faol ishtirokchisidir [1:234].

“Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matni: 1970-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi asosida Navoiy “Xamsa”sining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi, bu o‘zbek matnshunosligida katta voqea bo‘ldi.

Boburnoma nashri: S. Mirzayev bilan hamkorlikda Boburning “Boburnoma” asarining to‘liq ilmiy nashrini amalga oshirgan.

Tarjima va tahrir: Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, “O‘zbek klassik adabiyoti lug‘ati” (1953) va “Navoiy asarlarining lug‘ati” (1972)ni tuzishda ishtirok etgan.

### 3. Porso Shamsiyev metodlarining zamonaviy ahamiyati

Porsoxon Shamsiyev tomonidan ishlab chiqilgan matnshunoslik prinsiplari va “nusxalar tizimi” yondashuvi bugungi kunda ham dolzarb sanaladi. Uning matnlarni nazariy va variantlar asosida tahlil qilish uslubi zamonaviy matnshunoslikda hamda raqamli filologiya sohasida muhim metodik asos hisoblanadi. Uning boy tajribasi matnshunoslik va manbashunoslik talabalari uchun amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydi. P. Shamsiyevning Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarini forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr etishi, Jomiy va Navoiyning ijodiy, ijtimoiy va o‘zaro munosabatlariga oid lavhalarni jamlagan “Jomiy a Navoiy” to‘plamini tuzgani shular jumlasidandir. Ayniqsa, olimning “Tuhfat us-salotin” asarini aniqlashi g‘oyat diqqatga sazovordir. P. Shamsiyev mazkur asar Alisher Navoiy she‘riyatidan saralab olingan baytlar majmuasi ekanligini isbotlab bergan.

Matnshunosning klassik adabiyot sirlarini, fors, arab tillarini puxta bilgani lug‘atshunoslikda amalga oshirgan ishlaridan ham ko‘rinadi. 1952-yili S. Ibrohimov bilan birgalikda “O‘zbek klassik adabiyoti lug‘ati” asari o‘zbek klassik adabiyotini o‘qish-o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Keyinchalik esa olim tomonidan Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘at o‘tmish adabiyotimiz tarixini o‘rganishda kundalik qo‘llanmalardan biriga aylandi. Matnshunoslik fanining bugungi kundagi ahamiyati, dolzarbligini shundaki, usiz sovet adabiyoti namoyandalari asarlarini o‘rganib bo‘lmaydi. Chunonchi, G‘afur G‘ulomning to‘rt tomlik tanlangan va adabiy maqolalaridan iborat to‘plami Porsoxon Shamsiyevning tekstologik kuzatuvlari asosida nashr etilgani buning yaqqol dalilidir. Ustozning ilmiy maqolalari, taqrizlari ham uning yirik tadqiqotchilarga xos yuksak ilmiy iqtidoridan dalolat beradi (Tamila G‘afurjonova P. Shamsiyev – kamtarin olim). Porsoxon Shamsiyev haqida muntazam ravishda maqolalar berib borilgani tahsinga sazovordir. Bu maqolalar hozirgi kunda ibratli go‘zal xotiralarga aylanib qoldi (S. G‘aniyeva). P. Shamsiyev yosh olimlarning maslahatchisi, kamtar inson va aktiv jamoatchidir (“Keksa olim” Sh. Yusupov, fevral 1957, 60-yillik yubiley). Porsoxon Shamsiyev 1972 yilning 22 martida vafot etdi. Mehnatsevarlik P. Shamsiyevga xos xususiyat edi. Yarim asr mobaynida ming bosma toboqdan ortiq asarlar bevosita P. Shamsiyevning ishtiroki, yoxud tahriri ostida nashr etilishining o‘ziyoq, uning haqiqiy inson, ulkan mehnatsevar olim ekanligidan dalolat beradi (“Adabiy merosimiz fidoyisi” maqolasi). Porsoxon Shamsiyev Respublikamizda matnshunoslik ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan, zabardast tadqiqotchi va zahmatkash olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Porsoxon Shamsiyevning ilmiy merosi, uning odamiylik fazilatlarini haqida har qancha g‘urur va iftixor bilan gapirsak arziydi. [2:138] Yaxshidan bog‘ qoladi, deydi xalqimiz. Hayotda Porsoxon Shamsiyevdan qutlug‘ iz qoldi. Uning oqila rafiqasi Bahrixon aya bilan uzoq yillar umrguzaronlik qilib tarbiyalagan ajoyib farzandlari: Muhammadiyaxon,

Subhiyaxon, Nushiyaxon, Husniyaxon, Ma'muraxon va Fayziddin (nabirasini asrab oldi, Shamsiyev familiyasini berdi, uylantirdi, nabirasiga Saadi-forsiy shoir ismini berdi).

Mukofotlar va unvonlar:

1. "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni. Partiya va hukumatimiz (Respublikamiz).

2. "O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorliklari" bilan taqdirlandi o'zining xizmatlari uchun.

3. "Xalq maorifi a'lochisi" unvonlari bilan mukofotlandi.

4. Yunusobod tumanining Sobir Muxamedov (sobiq Zolotaryova 26) ko'chasidagi 26-uyda o'rnatilgan yodgorlik lavhasida Porsoxon Shamsiyevning nomi abadiylashtirilgan.

5. Porsoxon Shamsiyevning nomi Bektemir tumanidagi eng yaxshi ko'chalarga berildi.

6. 1952-yilda Porsoxon Shamsiyev filologiya fanlari nomzodi degan ilmiy darajani olish uchun muvaffaqiyat bilan dissertatsiya yoqladi. Olim o'zining ilmiy ishida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonining tanqidiy matnini tayyorlash vazifasini ilmiy asosda to'g'ri hal qilib berdi.

7. 1970-yilda "Alisher Navoiy "Xamsa"sining ilmiy-tanqidiy matni va uni tayyorlash prinsiplari" degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Matn tuzishda Abdujamil nusxasiga tayanch nusxa sifatida qaraldi. Shu bilan birga, matn ostidagi ilmiy apparatda qolgan ikki nusxadagi farqlar ko'rsatildi (litografik nashrdagi farqlar esa qayd etilmadi). Ilmiy apparat tuzishda biz barcha farqlarni, hatto, mexanik xatolarni ham qavsda ko'rsatdik. "Farhod va Shirin" (شیرین و فرهاد) dostonining ilmiytanqidiy matni ham xuddi "Sab'ayi sayyor" matniga asos bo'lgan qo'lyozmalar asosida tayyorlandi [Shamsiyev 1963]. Undan farqli o'laroq, yordamchi solishtiriladigan nusxalar sifatida Leningrad Davlat kutubxonasida saqlanayotgan XVI asrga oid ikki nusxadan foydalanildi. Ma'lumki, "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlar ma'lum ma'noda yaxlit asar sifatida qaralgani va "Xamsa" yaratish davrida (XII — XV asr) va undan keyin ham adib va kotiblarning hamma besh dostonni bir muqovada berishlari ham bejiz emas edi. Bu hol Alisher Navoiy "Xamsa"sigam ham taalluqlidir. 1959-yili biz tomonimizdan amalga oshirilgan Navoiy "Xamsa"sining bir kitobdagi akademik nashri bu monumental asar nashri tarixida yaxshi an'anani boshlab berdi [Shamsiyev 1959]. Shuni alohida qayd etish kerakki, "Xamsa"ning yaxlitligini saqlash faqat muallifning orzusi yo xohishi bo'lib qolmasdan, balki shoirning umum konsepsiyasi, hamma dostonlarning ichki mantiqiy uzviyligi bilan ham bog'liqdir. Xuddi shuni nazarda tutib, biz "Xamsa" matnini yaxlit o'rganishga kirishdik. "Xamsa"ni matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishning zarurati shundaki, adibning ushbu genial asari faqat o'tmishdagina emas, hozirda ham katta g'oyaviy-badiiy qimmatga egadir. Bizning zamondoshlarimiz har bir dostonda XV asr ilg'or kishilarining yuksak ideallarini, kishini to'lqinlantiruvchi va esda qoluvchi o'lmas obrazlarni ko'radilar. "Xamsa" tarkibidagi har bir dostonning bosh xati bu gumanizm g'oyasi, adolatga chaqiriqdan iboratdir [3:167]. Navoiy o'rta asrning eng progressiv kishilaridan biri sifatida dostonlarida o'sha davr sotsial-iqtisodiy hayoti, ilm va falsafa, madaniyat va adabiyotning aktual masalalarini qo'ya bildi. Navoiy "Xamsa"si sharq epik poeziyasining eng yaxshi an'analari, buyuk Firdavsiy va Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiyning an'analari muvaffaqiyat bilan

davom ettirdi va rivojlantirdi. Navoiy o'zining "Xamsa"sida shoir sifatidagina emas, balki buyuk olim va mutafakkir sifatida ham namoyon bo'ladi. U "Xamsa" yozishga kirishayotganda katta hayotiy tajribaga ega edi. U Sulton Husayn Boyqaroning vaziri bo'lgunga qadar hayotning hamma qiyinchiliklarini boshidan kechirdi, shularga qaramay doim ilmiyijodiy izlanishda bo'ldi. Navoiy 1469-yili Sulton Husayn saroyida davlat arbobi sifatida faoliyat boshlagach, XV asr II yarmi Xuroson siyosiy-iqtisodiy hayotining ichida bo'ldi, jamiyatning hamma ijtimoiy tabaqalarini yaqindan bildi. U davlat arbobi sifatida yagona va mustahkam davlat uchun kurashdi, zulmni pasaytirish, mamlakatni rivojlantirish uchun qo'ldan kelgan hamma narsaga urindi. Navoiy "Xamsa"si o'sha davrning eng dolzarb masalalarini va ularga shoirning yorqin munosabatini aks ettiradi. Navoiy gumanistik pozitsiyada mahkam turib, ko'p masalalarni hal qilishda jamiyatning ko'pchiligini tashkil qilgan oddiy tabaqa manfaatlarini nazarda tutadi, adolat, tinchlik, ma'rifat, vatanparvarlik, xalqlar, elatlar orasida do'stlik, muhabbat, aql, ilm va san'atga muhabbatni yuksak pafosda kuylaydi, jaholat va zulmni qattiq qoralaydi. Uning bunday hayotiy mushohadalari shu qadar samimiy va chuqur, ta'sirchan va originalki, natijada u hamma keying avlodning ham diqqatini o'ziga tortdi, hamisha ilm va san'at, estetik tafakkur taraqqiyotiga xizmat etdi. Shuning uchun ham ular yuzlab qo'lyozmalarda ko'chirilgan, bosma nusxalarda nashr etilgan. Navoiy "Xamsa"siga turli ijtimoiy qatlamlarning munosabati turlicha bo'lib, uni o'z manfaatlariga, qarashlariga moslashtirishga harakat qilganlar.

"Xamsa" qo'lyozmalaridagi ba'zi har xilliklar, qisqartish, o'zidan qo'shishlarning asosiy sababini ham shu bilan bog'liq deb o'ylaymiz. Bizning matnshunos sifatidagi vazifamiz shundan iboratki, biz hozirgi avlod o'quvchilariga "Xamsa"ning imkoni boricha muallif variantiga yaqin matnini bersak, bu bilan buyuk ijodkorning, buyuk mutaffakkirning qiyofasi yanada yorqin namoyon bo'ladi hamda uning o'lmas asarlari jamiyatga, yosh avlodni tarbiyalash vazifasiga yanada ko'proq xizmat qiladi. Biz nashr etadigan matnlar ham texnik, ham ilmiy xarakterdagi ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Bu hol, shuningdek, boshqa nashr qilingan klassik o'zbek adabiyoti matnlariga ham tegishli bo'lib, hozircha xatosiz nashr qilingan matnlarni topish qiyin ko'rinadi. Bu shu sohada tajribasizlik tufayli yoki, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda yagona va ishonchli ilmiy prinsiplarning yo'qligi sabablimi, xullas, aytish qiyin. Har qalay bu sohada ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilganligini e'tirof etish kerak. O'ttiz yil mobaynida xalqimizning ko'p asrlik tarixida yaratilgan yodgorliklarni nashr etishda ko'p ishlar qilindi. Bugungi o'quvchi faqat Alisher Navoiy ijodi bilangina

emas, balki bundan ming yil avval yozilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridan tortib, xalqimizning deyarli barcha o'tmishidagi ma'naviy boyligi bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi. Bunday asarlarning ilgari sanoqli nusxalarda ko'chirilgani va undan alohida guruhlargina manfaatdor bo'lgani to'g'risida gapirmasak ham bo'ladi [4:259]. Biz o'zimizning "Saddi Iskandariy" dostoni ustidagi tekshirishlarimizni boshqacharoq olib bordik. Ishni matnshunoslikda yig'ilgan tajribaga tayanib, Qozon davlat universiteti fondidan noyob, savodli yozilgan qo'lyozmani qo'lga kiritganimiz tufayli, avvalgidek, uch qo'lyozma asosida emas, balki bunga yana uch qo'lyozmani jalb etgan holda, matn tuzishning yangi prinsiplariga rioya qilgan holda olib bordik. Keyinchalik biz oldimizga — Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'liq ilmiy-tanqidiy matnini tuzish vazifasini qo'ydik. Ish jadal olib borildi va olti qo'lyozma asosida "Xamsa"ning ilmiytanqidiy matnini tayyorladik [5:156]. Alisher Navoiy "Xamsa"sining ilmiy-tanqidiy matniga asos bo'lgan qo'lyozmalar tavsifiga o'tishdan avval, shuni alohida qayd etish joizki, bizga ozarbayjon olimlari

jamoasining Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si ustida olib borgan ish tajribasi, shuningdek, Moskva sharqshunoslari tomonidan Firdavsiy “Shohnoma”sining ilmiytanqidiy matnini yaratishdagi boy tajribasi katta yordam berdi [6:278].

Xulosa qilib aytganda, “Saddi Iskandariy” dostoni nusxalaridagi ushbu nomuvofiqliklar Navoiy asarlari matnini ilmiy-tanqidiy nashr etishda eklektik usuldan (eng ishonchli o‘rinlarni turli nusxalardan jamlash) foydalanish naqadar to‘g‘ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Porsoxon Shamsiyev asos solgan qat‘iy matniy talablar nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu to‘rt nusxa o‘rtasidagi farqlar shunchaki xatolik emas, balki asarning besh asrlik hayot yo‘lini ko‘rsatuvchi ilmiy dalillardir. Tanqidiy matn yaratuvchi olim ushbu “xato”lar silsilasidan o‘tib, shoir irodasiga eng yaqin bo‘lgan “asl matn”ni yuzaga chiqarishga mas’uldir. mazkur qiyosiy faktlar Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda nafaqat baytlar soniga, balki sarlavhalar butunligi va kotiblar tomonidan qo‘yilgan maxsus belgilarga ham jiddiy e‘tibor berish lozimligini talab qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. Бертельс Е. Э. 1965. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва, 1961. – 234 б.
2. Эшонхўжаев Ш. Алишер Навоий. “Лисонут-тайр”. “Лисонут-тайр”нинг яратилишига доир. – Тошкент, 1965. – 138 б.
3. Фирдавсий. Шахнаме. Критический текст. Т. I. Под редакцией Е. Э. Бертельса. – Москва, 1960. – 167 б.
4. Костигова, Г. И. Трактат по каллиграфии Султан Али Машхади. Труды Государственной публичной библиотеки им. Салтыков-Щедрин, том II (V). – Ленинград, 1957. – 259 б.
5. Муродов, А. Ўрта Осиёда хаттотлик санъати тарихидан. Номзодлик диссертацияси. Алишер. 1948. Возлюбленный сердец. Сводный текст подготовил А. Н. Кононов. Москва — Ленинград. – 156 б.
6. Алишер Навоий. “Лисонут-тайр”. Илмий-танқидий текст. – Тошкент, 1964. – 278 б.